

**Toyloq tumani hokimligi bolalarni himoya qilish shu'basi tomonidan 2023-yil
birinchi chorakida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha B.Ruziyevning
H I S O B O T I**

Bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institusional va huquqiy-me'yoriy asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi bo'lgan bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli Farmoni imzolandi.

Ushbu farmon ijrosi asosida tumanda Bolalar masalalari bo'yicha tuman komissiyasi tashkil etildi. Farmonga asosan, komissiya ishchi organi tuman hokimligi bolalarni himoya qilish shu'basi xisoblanadi. Ish reja ishlab chiqilib, bugungi kunda ushbu ish reja asosida ishlar tashkillashtirilmoqda.

Jumladan, yetim va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, ota-onas qaramog'isiz qolgan yetim bolalar ro'yxatini shakllantirish hamda erta yetimlikni oldini olish, bolalarning mehribonlik uyiga tushishini oldini olish bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yish ishlari amalga oshirilmoqda.

Toyloq tumanida jami bo'lib 50 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, jami tuman aholisi 216900 nafar kishidan iborat. Shundan 83137 nafari voyaga yetmaganlarni tashkil qiladi.

Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish shu'basi tomonidan Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar rejasi va amaldagi qonunchilik talablari assosida - voyaga yetmaganlarning manfaatlarini ko'zlab 54 nafar bolaga vasiy hamda 16 nafar bolaga homiy tayinlandi. Shu bilan bir qatorda 11 nafar bolalar ota-onasining roziliqi bilan qarindoshlariga farzandlikka berilgan.

Alohida yashayotgan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarni otasi yoki onasi bilan uchrashish huquqlarini ta'minlash maqsadida 27 ta ariza shu'baga kelib tushgan bo'lib, ularni barchasini ijtimoiy yashash sharoitlari o'rganilib, FIB sudlarga tegishli tartibda xulosalar berilib ijrosini ta'minlash masalasi bo'yicha sudlarga ishtirok etildi.

Bundan tashqari farzanlariga nisbatan o'z ota-onalik majburiyatlarini bajarmagan ota yoki onalarni ota-onalik huquqlaridan maxrum qilish yuzasidan 2 nafar bolalarni huquq-manfaatlarini himoya qilish maqsadida tegishli tartibda xulosalar tayyorlanib ushbu ishlar sud tartibida ko'rib chiqildi.

Nabira bilan uchrashishni tashkil etish esa 6 nafar, Davlat natorial idoralarida 4 nafar bolalarni huquq-manfaatlarini himoya qilish maqsadida ularning otasi yoki onasidan qolgan meros ulushlarini undirib berish yuzasidan natorial hatti-harakatlarda ishtirok etib ularga tegishli bo'lgan meros ulushlari ajratib berildi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazorasizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa g‘ayriijtimoiy hatti-harakatlar yuzasidan ko‘rib chiqilgan masalalar 13 marotaba, voyaga yetmaganlarni ta’lim muassasalari o‘quvchilari safidan chiqarish haqidagi ko‘rilgan ishlar 23 tani tashkil etadi. Shu’ba qarori asosida voyaga yetmaganlarga nisbatan yakka tartibda profilaktika ishlari olib borilayotganlar 13 tani tashkil qiladi.

Shu bilan bir qatorda muntazam ravishda tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi hamda mutasaddi tashkilotlar hamkorligida tungi reydlar amalga oshirilib kelinmoqda. Tungi reyd davomida voyaga yetmagan shaxslarning tungi vaqtida ota-onasidan biri yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvisiz ko‘ngil ochar (dam olish) joylarida bo‘lishi holatlarini o‘rganilmoqda Tadbir vaqtida umumiyligi ovqatlanish shoxobchalari va kompyuter zallarida tungi vaqtida ota-onasidan biri yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvisiz bo‘lgan 3 nafar voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, ularning ota-onalariga qonun doirasida choralar ko‘rilishi belgilandi.

Tumandagi ta’lim muassasalarida o‘quvchilarining davomatini o‘rganish hamda o‘quvchilar o‘rtasida tig‘ (sovuuq qurol) olib yurish xolatlarini aniqlash va oldini olish yuzasidan maktablarda muntazam ravishda urganlishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birgalikda tumanda istiqomat qilib kelayotgan aholi o‘rtasida noqonuniy ravishda chet davlatlariga chiqib ketgan voyaga yetmagan maktab o‘quvchilarining yaqin qarindoshlari va ota-onalari bilan suhbatlar o‘tkazilib kelinmoqda. Farzandlarini majburiy ta’limdan ajratgan holda, xorijga diniy ta’lim olishi uchun yuborgan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar mas’uliyati masalasi hamda ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining MJtKning tegishli moddalari bilan ma’muriy ta’sir choralarini qo‘llanilishi aytib o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagisi “Yetim va ota-onalar qaramog‘idan maxrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5216-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida chin yetim, ota-onasidan meros bo‘lib qolmagan, o‘zining nomida turar-joy mavjud bo‘lmagan 2 nafar 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan bolalarga 2023-yilda uy-joy bilan ta’minlash masalasida navbatga olingan.

Ayni kunlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yetim bolalar va ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan yetim bolalar ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimi joriy etilib, sho‘ba tomonidan chin yetim va ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan 30 nafar bolalarning ma’lumotlari mehrdaftari.uz platformasiga kiritilib ularning orzu istaklari amalga oshirildi.

